

**O'zbekiston badiiy akademiyasi
Komoliddin Bexzod nomidagi milliy rassomlik va
dizayn instituti**

Libos dizayni kafedrası
Kostyum tarixi fanidan

REFERAT

Mavzu: Qadimgi Misr kostyumi

Bajardi: Do'smetova S.

Tekshirdi: Xodjayeva U.M

Toshkent- 2018

Reja:

- 1. Qadimgi Misr davlati va e'tiqod dinlari haqida.**
- 2. Qadimgi Misr san'ati va madaniyati.**
- 3. Qadimgi Misr arxitekturasini.**
- 4. Qadimgi Misr milliy kostyumlari:**
 - a) Erkaklar kostyumi;**
 - b) Ayollar kostyumi;**
 - d) Fir'avn kostyumi;**
 - e) Qullar, shaharliklar va qassoblar kostyumi;**
- 5. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining 3 bosqichi.**
- 6. Qadimgi Misr armiyasi.**
- 7. Ranglar, matolar, bosh kiyim, soch turmagi,
Kosmetika va taqinchoqlari.**

1. Qadimgi Misr davlati va e'tiqod dinlari haqida:

Misr Afrikaning shimoli – sharqida va Osiyoning Sinay yarim orolida joylashgan chuqur va keng tarixga ega bo'lgan davlat. Er. avv. 4000 yillik oxiri – 3000 yillik boshlariga kelib ular yagona yirik despotik davlatga aylandi. Qadimgi Misr san'ati tarixi ana shu davlatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozidan tortib, to makedoniyalik Iskandarning yurishi bilan uning elinistik dunyoga qo'shilib ketishigacha bo'lgan davrni o'z



ichiga oladi, o'rganadi, taxlil etadi. Podshoxlar sharafiga qurilgan dabdabali maqbaralar xatto ular o'limidan keyin ham hokimiyat qudratini namoyish etardi. Qadimda Misr quldorchilik davlati bo'lib, butun hokimiyat firavn qo'lida edi. Uning hukmronligi cheksiz bo'lgan. Misrliklarning tasavvurida firavn Xudoning yerdagi soyasi hisoblangan. Misrliklar, asosan dehqonchilik, chorvachilik va har xil hunarmandchilik to'quvchilik, zargarlik, kulollik bilan shug'ullanganlar. Aholining asosiy qismi shaharlarda xunarmandchilik, qishloqlarda esa dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Jamiyatda koinlar ham katta hokimiyatga ega bo'lishgan. Bazida xatto firavnlarga ham xukmlarini o'tkazishgan. Firavn hokimiyati cheksiz bo'lganligi tufayli aholi qattiq siquv ostida yashab kelgan. Qadimgi Misr aholisi bir necha tabaqaga bo'lingan: **quldor zodagonlar; shahar aholisi** (xunarmandlar, mirzalar) **ozod dehqonlar** – o'z mehnati bilan nafaqat o'z oilasini balki firavnni, mirzalarni va soxchilarni boqishgan; **qullar; aslzodalar;**

Qullar Misrda asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoiti Qadimiy Misr xo'jaligining rivojiga sabab bo'lgan.




Ptalamey davrida Qadimgi Misr asosiy non yetkazib beruvchi elinistik davlat bo'lgan. Bu vaqtda Misr floti o'rtayer dengizida xo'jayin bo'lgan. Ptolomey dinastiyasining oxirgi malikasi Kleopatra boshchiligida Qadimgi Misr Qadimgi Rim bilan politik kurashga tortilgan edi. Eramizdan avvalgi 31-yilda Misr floti Kleopatra VII o'z-o'zini o'ldirib va Mark Antoniyo'ning o'limidan so'ng Misr rim provinsiyasiga aylanadi.

Qadimgi Misrliklar hayoti haqida bizgacha yetib kelgan devorlarga o'yib qoldirilgan ko'rsatmali rasmlar orqali ularning hayoti, turmush-tarzi haqi

da bilim-
ga ega bo'
lamiz.

Qadimgi Misr san'atining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u din bilan aloqada va unga tobe bo'lgan. Firavn va zodagon-



Ptax, Set, Asiris, Ra, Isida, Amon-Ra xudolari

lar bilan bir qatorda, kohin va din vakillari ham juda ko'plab ibodatxonalar qirilishi va Xudolar obrazining ishlanishiga sabab bo'ldilar. Gap shundaki, qadimgi misrliklarning diniy tushunchasi o'zining spetsifik xususiyatiga egadir. San'at uchun Qadimgi Misr dinidagi o'lganlarga sig'inish alohida ahamiyatga ega edi. Qadimgi misrliklar agar odamning jasadini yaxshi saqlansa, narigi dunyoda uning ruhi abadiy yashaydi, deb tushunganlar agar jasad buzilsa yoki chirib ketsa, yo'qolsa, shu odamning narigi dunyoda tinch yashashi uchun uning jasadini o'rniga haykal qo'yishni odat qilganlar. Qabrga jasad yoniga esa uning tirikligida foydalangan uy-anjomlari, qurol-aslahalar, suv, oziq-ovqat qo'yish yoki shularning tasvirini ishlash kabi odatlar mavjud bo'lgan. Bu albatta ko'mish bilan bog'liq bo'lgan me'morlik san'ati, qabrlarga qo'yish uchun ishlangan haykal, rang tasvir san'atining rivojlanganligiga sabab bo'lgan. Albatta bunday boy, tantanali ko'mish marosimi, monumental maqbaraning ichini san'atning hamma turlari bilan bezatishni faqat firavn va Misr boylari amalga oshirishi mumkin edi.

Qadimgi Misrda birgina din bo'lmagan, alohida Xudoga mos kultlar xilma-xilligi bo'lgan. Ko'pchiligi genoteistik xarakterga ega bo'lgan, shuning uchun misr dini politeistik hisoblangan.



Nilufar guli – quyoh timsoli

Misr dini 3000 yil uzoq yo'lni fetishizm va totemizmdan to politeizm va manoteistik fikrlashgacha rivojlangan. Misrda birinchi bor xudo birligi konsepsiyasi – Exnaton firavnnining din reformasi qo'llangan. Xar xil vaqtda eng xurmatlisi Ra xudosi va keyinchalik esa Amon, Osiris, Isida, Set, Ptax, Anubis xudolari. Misrliklar uchun timsollar juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan: nilufar guli – quyosh timsoli, ilon (urey) cheksiz xukmronlikni bildirgan.

2. Qadimgi Misr san'ati va madaniyati:

Qadimgi Sharqiy- Misr bir necha ming yillab organik butunlikni, xuddi sirli Sfinkisdek saqlab kelgan. Qolgan xalqlar bu sivilizatsiyaga duch kelib shakl va obrazlarini o'zgartirganlar. Qadimgi Misr uzoq yo'lni bosib o'tdi. Deyarli 4000 yildan ortiq vaqtni o'z ichiga olgan bu davr mobaynida

tasviriy va amaliy san'at, memorlikning nodir durdonalari yuzaga keldiki, ular bugungi kunda ham o'zining ulug'vorligi, mahobati va yuksak badiiyligi bilan kishilarni hayajonlantiradi. Qadimgi Misr realistik san'atining eng gullagan davri yangi podsholikka to'g'ri keldi. Rassom va haykaltaroshlar zodagonlar hayotiga bag'ishlangan serjilo devoriy suratlar, nafis relyef va haykaltaroshlik asarlari yaratdilar. Ular asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan kanonlardan chetga chiqib, hayotiy kompozitsiyalar yaratdilar, asarlarning plastik, emotsional tomonlariga etiborni qaratdilar, rang palitralarini kengaytirdilar. Yangi podsholik davri san'atidagi bu xislatlar islohotchi firavn Exnaton davrida o'zining eng rivojlangan davrini boshidan kechirdi. Amarna san'ati deb nom olgan Exnaton asri Misr madaniyati tarixida qisqa bo'lsa ham, lekin u avvalgi san'atning yaxshi tomonlarini o'ziga singdirib, o'z navbatida uni yangi pog'onaga ko'tardi. Eramizning 1 minginchi



yillaridan boshlab, Misr yerlarining parchalanishi san'at taraqqiyotini bir muncha susaytirdi. Misr san'ati umumjahon san'ati taraqqiyoti fonida alohida o'ziga hos qaytarilmas o'rinni egallaydi. Qadimgi Misrning yuksak did va aql-zakovat bilan



bajarilgan nodir san'at namunalari esa insoniyat badiiy maktabining ajoyib durdonasi hisoblanadi. Bu namunalar o'zidan keyingi jaxon san'ati



taraqqiyoti uchun taqlid maktabini o'tadi. Qadimgi Misr san'ati yevropa rassomlarining ampir, modern, neoklassitsizm uslubini birlashtirgan.

3500 yil davomida rassomlar shakl tomoni ushlangan. Bu rassomchilik standartlari oddiy chiziqlarda, shakllarda, figuraning xarakterli tekis proeksiyasida ko'rsatilgan. Matn bilan ko'rinish bir-biri bilan machit devorlarida, mozorda, haykallarda bog'lanib ketgan. Bo'yoqlarni minerallardan, temir rudalardan, mis rudalardan, ko'mirlardan va ohakdan olingan. Ularni gummiarabika bilan aralashtirib, quyuq xolga keltirib bo'laklarga bo'lishgan va keragida suvga aralashtirib ishlatishgan.

Qadimgi Misr san'at kanoni ming yillab saqlansa ham, ayrim vaqtning badiiy ko'rinishiga kultura va palitik tomondan

ta'siri bo'lgan. Masalan, Avarisda "Minoy stili"da freskalar topilgan, ular giksoslar bosib olganda hosil bo'lgan.

Qadimgi Misr san'atini olimlar Napaleonning Misrga yurish vaqtida qaytadan o'rganganlar. Tadqiqotlar natijasida tarix yodgorliklarining juda katta miqdori yeg'ilib, Yevropaga chiqarildi

3. Qadimgi Misr arxitekturası:

Misr poytaxti- Qohiraning janubida, Nil vodiysining serunum yerlari tugab, hayot asari bo'lmagan Liviya sahrolari boshlanadigan qaynoq qumlar ustida oq va sarg'ish rangli, o'tkir qirrali bahaybat sun'iy "tog'" ko'zga tashlanadi. Bular ehromlardir. XIII asrda yashagan sayyohlardan biri bu ehromlarni ko'rib:<< Dunyoda hech bir narsa vaqtga dosh berolmaydi, lekin bu ehromlardan vaqt ham hayiqadi>> , - degan edi.



Chindanda bu ulkan sag'analar bugungi kunda ham xuddi qadimgiday salobat bilan turibdi. Qadimgi Misrliklarning ko'pchiligi tuproq bilan ishlaganlar. Ularning yashash joylari issiq va sovuqni ushlab turishi uchun g'ishtdan qurilgan. Har bir uy oshxonasining ochiq tomi bo'lgan, chunki un tegirmoni va non yopish uchun tandiri sig'ishi kerak bo'lgan

Firavn va velmojlarning qasrlari hashamatli bo'lib, ertaklardek bezatilgan. Uy devorlari oq rangga bo'yalgan va devorlarga zig'irli gilamchalar osilgan bo'lishi mumkin. Pollarining usti qamishli bo'yralar

bilan qoplangan, mebellari yog'och stul, kravat, stollardan iborat bo'lgan. Xonalarning xilma-xil funkcionalligi murakkab kompleks bo'lib yaratilgan. Ularga ajoyib bog' suv xavzalari barpo qilinib uyerda nilufar gullari va baliqlar suzishgan. Hammasi esa boshidan oddiy hujra rejasi bo'lib, hom g'isht tuproq va qamishlardan qurilgan. Qadimgi Misr arxitekturasini quyidagi qurilgan mozorlar bilan taniqli: Giza piramidasi, Luksorskiy xrami, Amarna saroyi. Binoning ichki va tashqi devorlari, ustunlari iroglif va freskalar bilan berkitilgan, yorqin ranglar berilgan.

Misr ornamentlarining ko'p motivlari skarabeya yoki iloxiy qo'ng'iz, quyosh diski va krecheti- simvolikasidir. Boshqa tarqalgan motivlar palma barglari, papiirus o'simligi, nilufar gulidir. Irogliflar dekoratsiya maqsadida, hamda tarixiy voqealarni yozishda yoki afsunlarni yozishda



Katta Sfinks va Xefrena Miramidasi

ishlatilgan.

Ko'pgina kult ko'rinishlarini rejalash quyosh turishi va kun tengligiga bog'liq. Har bir fir'avn tahtga o'tirishi bilan piramida qurila boshlagan. Misr piramidalari Qadimgi Misr arxitektura haykallaridir, shular ichida fir'avn Xufu – "Xeops" piramidasidir. Piramidalar bu katta toshdan yasalgan

piramida shaklli inshootdir. Ulardan bir nechalari Qadimgi Misr firavnlarning mozarlari uchun ishlatilgan.

“Piramida“ soʻzi grekchadir. Ayrim tadqiqodchilar fikricha bugʻdoyning katta yegʻimi piramidaning yaratilishiga sabab boʻlgan. Boshqa olimlarning fikriga qaraganda bu soʻz pirogning piramida soʻzidan kelib chiqqan. Hammasi

boʻlib Misrda 118 ta piramida bor. Maʼlimotlarga qaraganda birinchi Misr piramidasi III dinastiya firʼavn Josser buyrugʻiga asosan – Sakkarada zinapoyali piramida qurilgan, arxitektori Josser Imxotep. Misrliklar fikricha bu piramida Qadimgi Misrda Qadimgi va Barvaqt qirollik davrlaridagi taniqlilar maqbaralarini rivojlantiradi. Eng taniqli piramida bu yuksak Xeops, Xefren va Mikerina piramidalaridir. Ehromlarning eng yuksagi Xeops piramidasidir. Uning balandligi 147 metr, bundan qariyb 5 ming yil ilgari, yaʼni mil.avv XXVIII asrda qurilgan. Xufu ehromining har bir tomoni 233 metrga teng, atrofini bir marotaba aylanib chiqish uchun 1 km ga yaqin yoʻl bosish kerak. Bu ehrom silliqlab tarashlangan va jilo berilgan




2 million
300
mingta
ohak
plitalar
dan tiklan
gan. Har
bir plita-
ning ogʻir
ligi 2 ton-
naga
yaqin.
Kattaligi

jihatidan Xufu ehromidan keyin Xefren ehromi turadi. U Xufu ehromidan 2 metr past. Bu fir'avnga tog'dek sag'ana ham kamlik qildi va u ehrom oldida yaxlit qoya tiklatib, unga bosh qismi odam boshiga o'xshatib ishlangan sher shaklini ishlashni buyurdi. Bu haykal Sfinks deb ataladi. Sfinks obrazi inson kabi donolik vas sher kabi kuchlilik ramzini ifodalaydi. Mahalliy aholi uni "Abul Havl – dahshat otasi " deb yuritadi.



Gizadagi 3 ta bahaybat ehromlar:
Xeops (Xufu),
Xefrena (Xafri),
Mikerina (Menkaura),
Yana 3ta kichkina sputnik ehromlar ko'rinmoqda.





***Ehromlar-
ning ichki
tuzilishi***



4. Qadimgi Misr milliy kostyumlari:

Firavn boshchiligida Qadimgi Misr despotik monarxiya ko'rinishida bo'lgan. Xalq tabaqalarga bo'linib, - kiyinish odobi tabaqalarga qarab bo'lingan. Misr xalqi bir necha asrlardan beri qadriyatlarini o'zgarmagani sababli kiyinish shaklida ham ko'p asr davomida o'zgarish bo'lmagan. Lekin to'quvchi – hunarmandlarning usta bo'lganidan visson nomli pishiq, yupqa mato yaratganlar. Atrof muhitning haqiqiyliigi, kuzatuvi va obrozlarning abstrakti, sharoiti – bularning hammasi madaniyatning badiiy tomonlaridir. Qadimgi Misrliklar tashqi ko'rinishi va gigienasiga juda katta ahamiyat berganlar. Ular daryo suvlarida cho'milib, sovun sifatida hayvonlarning yog'i bilan melda bo'lgan pasta ishlatganlar.



Erkaklar tozalikni saqlashlari uchun butun badanini qirib, har xil hidlarni ketkazish uchun duhi va tanasini tinchlantirishda mazlar ishlatganlar.

Qadimgi Misrliklar kostyumi xilma-xil rangli paralel chiziqlardan iborat bo'lgan ornamentlar, geometrik va o'simlik harakteriga ega bo'lgan zigzaglar bilan bezatilgan. O'simlik ornamentida asosiy ro'lda nilufar guli,

shuningdek qamish, palma, papiruslarning birgalikdagi rasmlari ishlatilgan. Hayvonlarning – burgut, ilon, skarabeya qo'ng'izi ishlangan rasmlari taniqlilarning kiyimlarini bezagan.



Oziq-ovqat tarkibining asosi non, piva bo'lgan. Yana sabzavotlardan piyoz, chisnok, mevalardan anjir xurmo qo'shilgan. Bayram kunlari go'sht va vino berganlar.

Misrliklar musiqa va o'yinlardan “senet” yordamida quvnaganlar. Bolalar orasida kopto'k bilan o'ynash kurash tushish mashhur bo'lgan.

Yuqori tabaqadagi erkak va ayollari parik va har xil taqinchoqlar taqishgan. Bolalarning 12 yoshgachasi umuman kiyimsiz yurishgan. 12 yoshda o'g'il bolalarning sochlari kalga olinib, kesilgan. Onalari bolalarni katta qilishda, otalari esa oilani boqishda ishtirok etganlar.

a) Erkaklar kostyumi:

Nil vohasining havosi shunday ediki, hech qanday kiyim kiymasdan faqatgina ayrim joylarni berkitsa bo'lgandi. Erkaklar har xil bezaklarni, qimmatbaho narsalarni yaxshi ko'rganlar, qo'llarida bilak uzuk, qimmatbaho persten taqishgan. Juda ham tarqalgan bezak skarabeya qo'ng'izidir, uni qimmatbaho toshlardan bezab, ip bilan bo'yinga taqganlar.

Qadimgi Misrliklarning eng keng tarqalgan kiyimi – bu drapirovkalidir. Keyinchalik ularda ustiga tashlanadigan kiyim paydo bo'lgan, lekin

Misrliklarning qimmatbaxo kiyimi bo'lmagan. Misrliklarning kostyumi juda to'g'ri aniq chiziqli intilishi xarakterli hisoblangan.

Qadimgi Misr

ideal obrazini biz haykallardagi baland bo'ylik, keng yelkalar, jiddiy yuz, tor bel, tor bo'ksalarda ko'rishimiz mumkin.

Ichki kiyim:

Erkaklar bo'ksaga bog'lanib kiyiladigan teri va matolardan qilingan peshband **sxinti** kiyishgan. Uning uzunligi va shakli har xil uchburchak, to'rtburchak bo'lgan. Bog'lam belda har xil drapirovka qilinib, belbog' bilan

ushlangan. Belbog' qadimgi Misr kostyumining asosi bo'lgan. U

ingichka tasma

(mato qiyqimi) ko'rinishida bo'lib, o'rtada old tomondan bog'langan, uchlari yasatilib osilib turgan. Tanilgan sxinti juda ajoyib va juda yupqa, gulli matodan yasalgan. Sxintini plisirovka bilan ham yasatishgan. Sxintida drapirovkaning hammasi oldida bo'lib, orqasi yopishib turgan. Beldan pastdagi bog'lam bilan yoki bog'lamsiz erkaklar perednik tutishgan. Ingichka uchburchak bel kiyimi har xil uzunlik va qalinlikda bo'lib, uning eng ko'p tarqalgan shakli bu avalniy va pastga qarab kengaygan shaklidir. Bel kiyimda dekorativ elementlar yo'q.

b) Ayollar kostyumi:

Misrda eng chiroyli ayol terisi bug'doy rangli, silliq yanoqli, tim qora sochli, oyoq - qo'llari chiroyli bo'lgan ayol hisoblangan.



Uning yuzlari tekis, to'g'ri chertali, bodom ko'zli, o'tkir burunli bo'lishi kerak bo'lgan. Ayollarning milliy kiyimi bu ko'ylak bo'lib **kalaziris** deb nomlanadi. Kalaziris matodan enli tasma bo'lib, u bilan to'piqdan ko'krakkacha o'ralgan va yelkaga bir yoki ikki lyamka bilan birlashtirilgan. Uning shakli malikaga ham oddiy xalqqa ham bir xil bo'lgan. Matoning sifati va kiyimning oqligidan tabaqaga ajratish mumkin bo'lgan. Badanga yopishgan ko'ylak juda elastik bo'lib, erkin harakatlanishga hech ham halaqit bermagan. Rangi va matolari xuddi erkaklarning kostyumidek bo'lgan. Matolarning bezatilishi xuddi erkaklarning kostyumlaridek.



d) Fir'avn kostyumi:



Firavn kostyumi — sxinti keyinchalik plisirovkali. Boshida hokimiyat ramzi — **klaft** katta ro'molga o'xshaydigan bosh kiyim. Klaft katta yo'l yo'l tilla rang va ko'k mato tasma hamda aylanadan iboratdir.

Klaftning yonlama tomonini boshni peshona qismiga eniga yopib, ustidan tasma bilan mustaxkamlanadi va ilon shaklini beruvchi toj taqiladi. Klaftning yon tomonlari yarimoy shaklida kesilgan bo'lib, u kiyilganda old qismi to'g'ri

tekis aniq mato parchasi bo'lib tushishi kerak bo'lgan. Klaft chang – to'zondan himoya qilish, quyoshdan toblanmaslik uchun hamda u insonni aslzoda firavn oilasiga mansubligini bildirib turgan.

Tilladan to'qilgan soqol faqat firavnda bo'lgan va u xukmronlik timsoli hisoblangan. Eng qalin va uzun pariklarni faqatgina firavn va uning oilasigina kiyishi mumkin bo'lgan. Firavnlr eng xashamatli, eng chiroyli, eng qimmatbaxo narsalar bilan o'zlarini siylashgan. Ular o'zlarini quyoshning o'g'li sifatida ko'rsatish uchun boshlariga maxsus bog'lam taqishgan. Ularning umr yo'ldoshlari ham



ularning yo'lidan brogan. Ilon **urey** cheksiz hukmronlik timsoli hisoblangan, Bosh kiyimdagi tasma atrofida tilla ilon urey timsoli bo'lgan. Bu ilonning bosh qismi firavn peshonasining qoq o'rtasiga to'g'ri kelgan. Firavnning bosh kiyimi, toji, belbog'i qimmatbaxo emal toshlar, oltinlar bilan qoplangan. Firavn kostyumi juda ham sekin o'z ko'rinishini tarix davomida o'zgartirgan. Shuningdek qirol toji hisoblangan pshenta o'zgargan.

Firavnning umr yo'ldoshi ham nilufar guli timsolidan bosh kiyim kiygan, ularning bosh kiyimlari ham qimmatbaxo toshlar bilan bezatilgan bo'lgan.

Firavn, Sanovnik va ularning ayollari kostyumi, qassoblarning, oddiy xalqning kostyumidan faqat qimmatbaho matosi bilan emas, balki belbog'lari, sharflari, yoping'ichlari, har – xil bosh kiyimlari, bezaklari, katta miqdordagi taqinchoqlari, rang va sakral belgilari bilan ajralgan.

Shoxona kiyimlarni eng yupqa matolardan tikishgan.

Firavn va zodagonlar asosan yalangoyoq yurishgan, lekin zaruriyatda oyoqlariga kiyishgan

huddi o'zlarini yerda yurmaydigan qilib ko'rsatish uchun. Firavn hamda zodagonlarning sandallari tilla va tilla suvi bilan bezatilgan. Oyoq uchidan tepaga qarab ketgan.

Sandallar oyoqqa remen bilan bog'lanib, oyoqning tizza qismigacha borib juda nozik did bilan bezatilgan. Oyoq kiyimning tagiga esa har xil janglarning saxna ko'rinishlarini rasmini tushirishgan. (Firavn tovutiga tilladan ishlangan ritual sandal qo'yilgan undan qabr hayotida foydalanish uchun).

e) Qullar, shaharliklar va qassoblar kostyumi:

Tantanalarda (ritual xizmatda, qurbonliklarda) qassoblar timsox, xo'kiz, burgutlarning maskalarini kiyishgan.

Panteraning terisi bilan qassobning orqasini, uning boshi va yuqori qismi bilan oldini yopib, beliga yopishtirilgan. Oltin plastinka va emalli taqin-choqlar bilan hayvonning boshi va oyog'ini yasatishgan. Shaharliklarning kostyumi tabiiy rangli juda qalin xolst parchasidan iborat bo'lib, belini



Fir'avn, jretsi, xudo qiyofasidagi

yopib turgan. Misrning kuydiruvchi quyoshidan himoyalaniib oddiy xalq boshlariga teri va matodan ishlangan kichik shapkalar kiyishgan Oddiy ayollar kostyumi umuman o'zgarmagan: ilgakli kalaziris ko'ylagi, ba'zida kichkina yengchalari bilan. Uni tabiiy zig'ir va paxta matosidan tikishgan, rangi oq yoki har xil ranglarda bo'lgan.

Qullarni boshqarish davrida Qadimgi Misr asosiy 3 ta sinflarga bo'lingan: qullarni boshqaruvchi, qullar va krestyanlar. Qullarni boshqaruvchilarda yer, qul, mexnat quroli, tilla va hayvon podsi bo'lgan.

Qullarda hech narsa bo'lmagan va o'zlari ham qul boshqaruvchilarga bo'y sunganlar. Krestiyanlarda ozgina yer, mehnat quroli va ozgina podasi bo'lgan. Eramizdan avvalgi IV



Qullar

likda Misrda qul boshqaruvchilarini qurish boshlangan. Urush vaqtida qabilalar o'rtasida asirga tushganlarni yutganlar olgan. Oldiniga ularni ishlatish befoyda edi, chunki asir o'z kuchi bilan topgani faqat yeyish uchun yetgan. Shuning Misrda asirlarni o'ldirishgan va ularni "o'ldirilganlar" deb nomlaganlar. Qachonki odamlarning mehnati unumdor bo'lganda asirlarni tirik oldirishgan. Ularni qabila boshlig'i yoki taniqli misrliklar olishgan. Asirlarni "tirik o'ldirilganlar" deb chaqirishgan. Qullarning kiyimi juda oddiy va sodda bo'lgan. U katta bo'lmagan juda qo'pal bog'lamdan iborat bo'lib, bu bog'lam teri va oq bo'lmagan matodan ishlangan. Nil qirg'oqlaridagi ishlarda qullar bilan krestiyanlarning oyoqlarini oldiniga faqatgina paytavalar keyinchalik sandallar himaya qilgan. Ularning tag qismi palma tolalaridan, papyrus yoki teridan ishlangan va ancha vaqtgacha tekis bo'lgan.

5. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining 3 bosqichi.

Qadimgi Misr sivilizatsiyasini 3 bosqichga bo'lish mumkin.

- 1) Qadimgi podshoxlik 3000 – 2400 yy er. avv.
- 2) O'rta podshoxlik 2400 – 1710 yy er. avv.
- 3) Yangi podshoxlik 1580 – 1090 yy er. avv.

Qadimgi podshohlik davri:

Qadimgi podshoxlik davri er.avv 3000-2400- yillarni o'z ichiga oladi. Vavilonyan va assiriyan kiyimlariga kam ahamiyat berilgan, Misrliklar kostyumi yengil bo'lib, yumshoq va bir xil iqlimga mosdir.

Qadimgi podshohlikda erkaklar milliy kostyumi uzunchoq to'rtburchakli perednik bo'lib bel atrofida shunday turganki, burchagi bilan ayrim joylarni berkitgan.

Ayollari ingichka qog'ozli ko'ylak, badanga pishiq yopishib turadigan va hamma shaklni obrisovavshi kiyishgan. Ko'ylak ko'krakdan boshlanib yelkada bog'ichlar bilan ushlangan va oyoqgacha ko'ylak tushib turgan, ba'zida ko'ylak yengi bilan bo'lgan. Bu ko'ylak milliy bo'lib kalaziris deb nomlangan.

Ayollar ham erkaklar ham keng uzuksimon yoqa bilan yelka va ko'krakning yuqori qismini berkitib turadigan va bu nafaqat berkitish, balki bezak vazifasini ham o'taydigan zebigardon taqishgan. Ba'zida ayollar umuman ko'ylak kiymay- faqat birgina uzun ingichka bog'lam va boshlariga klaft kiyishgan.

Qadimgi podshoxlikda qizil, barg rang, havo ranglarni yaxshi ko'rishgan. Keyinchalik ranglar gammasi boyib boradi: qora, moviy rang, oxra, barg rangni ko'zga tashlanuvchisi paydo bo'ladi



Qadimgi podshoxlik davri (er. avv. 3000 – 2400)

O'rta podshoxlik davri:

O'rta podshoxlik davri eramizdan avvalgi 2400 – 1710 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda kiyim bir muncha bezaklarga ega bo'lib, drapirovkalar paydo bo'ladi. Plisirovka keng ishlatilina boshlanadi. Kiyim shakli murakkablashib, kiyimlar ustma – ust kiyilgani sabab keng ko'rinishga ega bo'ladi.

Erkaklar kostyumi bir necha yupqa bir – birining ustidan kiyiladigan kiyim sxintidan iborat bo'ladi.

Ayollar kostyumi o'zgarishsiz qolgan.

O'rta podshoxlik davrida kalaziris oldingi bichimda qoladi.

Badavlat odamlarning kiyimida yangi bezaklar paydo bo'ladi – har – xil rangli oynasimon marjonlar, hamda qimmatbaho toshlardir. U zebigardon deb nomlangan.



O'rta podshoxlik davri (er.avv. 2400 – 1710 y.)

Yangi podshoxlik davri:

Yangi podshoxlik davri eramizdan avvalgi 1580 – 1090 – yillarni o'z ichiga oladi. Yangi podshoxlik davrida Misr gullashni boshlaydi: bu vaqtda Osiyoning politika hayotida qatnashib, 18-dinastiyaning fir'avini sabali juda katta kuchga ega bo'ladi. Shaharga boshqa yerlardan savdogarlar kela boshlaydi. Fir'avn o'zi ham xotinlikka boshqa ayolni oladi. Bu hamma shart-sharoitlar xalqning hayotiga ta'sir etib, hashamatga intilishga ta'sir ko'rsatadi. Erkatoy Ramzes II davrida bu hashamat o'zining apogeyasiga yetib, Rim imperatorining hashamatiga joy bermaydi. Taniqlilarning kiyimlari yetib bo'lmas boy bo'ladiki, yo'lli yupqa matoda keng, shishib turuvchi kiyim kiyiladi. Ko'rinuvchan va yarim ko'rinuvchan mato Misrga xos va uni hamma kiygan. Biz ham ayol haykallarida yubka kiyib, badani ko'rinib turganini ko'rganmiz. Zodagon Misrlik perednik ustidan uzun kiyim keng yarimkalta yengi bilan kiygan, kiyim yuqori qismi badanga yopishgan, pastga tomon skladka bo'lib ketgan. Haykallarda saqlanib qolgan tasvirlarga asosan kiyim oq matodan qizil chiziqlari bilan bo'lgan. Mato asosan paxtali qog'ozdan va shunchalik yupqaki undan badanning jigarrangi va perednikning oq rangli



Yangi podshoxlik davri (er. avv. 1580 – 1090)

qimmatbaho tosh, emal, tesmalar bilan bezalgani bilinib turadi. Xuddi shu kiyimni yupqa chiziqchali matodan ayollar ham kiyishgan. Ba'zida ustki kiyim shunday bichilardiki ko'krak qismi ochiq qolardi. Uzuksimon yoqa juda xushbichimdir: qo'yma tilla yoki tillali figuralardan yoki matoga tilla bilan tikilardi. Kiyim soni ko'payadi. Bu davrda kiyimdan tabaqalarga ajralish kuzatiladi:

- Badavlat odamlarning kiyimi shakli bo'yicha murakkablashishi;
- Qimmatbaho yupqa matolarni ishlatilina boshlanilishi, ularning faktura va rangliligi, kostyumning hamma timonida plisirovkalar ko'payishi;
- Tilla va emal bezaklarining ko'payishi;

Yangi qirollik davrida qimmatbaho metal va tilla buyumlarga ishlov berish juda ustalik bilan qaralgan. Kostyumlarga bezak bilan boy bo'lgan belbog' qo'shimcha bo'lgan. Siriyadan erkak va ayollarning kostyumlariga yangi shakl – **naramnik**



Fir'avn va uning amaldorlari

keladi. Uni plisirovkali yubka yoki yopinchiq bilan kiyishadi. Shunday qilib naramnik ustki kiyimning bir qismi bo'lib qoladi. Naramnik odamning bo'yiga ikki barobar uzun va ikkiga taxlangan mato bo'ladi. Ikkiga bukilgan joyida bosh uchun teshik bo'ladi. Uning yon tomoni ochiq bo'lib tekkis yoki pastga qarab kengaygan mato bo'lgan. Ba'zida har – xil uzunlik va kenglikda yengi ham bo'lgan.

Faqatgina fir'avn sandal kiyishga loyiq bo'lgan. Unga bo'ysunuvchilarning hammasi yalang oyoq yurganlar. Oyog'ida papirus bargidan yoki teridan ingichka tasmadan to'qilgan sandal tizzaga yetadigan bog'ich bilan bog'langan. Sandallar oyoqda bog'lam yordamida ushlab turilib uchining shakli qayrilgan bo'lgan. Birinchi va ikkinchi barmoqlar orasidan remesho'k o'tgan. Taniqli odamlarning sandallari tilla yoki tilla suvi yugurtirilgan bezaklar bilan bezatilgan. Ayollar oyoq kiyimi erkaklarnikidan farq qilmagan. Yangi podshohlik davrida modellashgan

bir necha bosh kiyimlar yaratilgan. Qiyin bo'lgan bosh kiyimlar paydo bo'ladi: qo'y shoxli klaft (Amon xudosining kiyim bo'lagidek).Qurbonlik vaqtida firavn boshiga metaldan osmon rangli shlem kiygan. Firavn ayoli hamma ayollarga o'xshab kalaziris kiygan. Unga qo'shimcha belbog' yoki tunika ko'ylak yoki yupqa matodan plash bo'lgan. Malikaning takrorlanmaydigan belgisi- bu burgut shaklidagi bosh kiyimi edi. Burgut o'zining qanotlari bilan malikaning boshini asraydi deb hisoblashardi.

6. Qadimgi Misr armiyasi:

Birinchi
bor
qo'shin,
doimiy
qo'shin
sifatida
qadimgi
podshohlik
da
shakllana
boshladi.
O'zining
xizmati
uchun
jangchilarg




a yer berilgan. Ularning asosiy quroli oddiy kamon, mis bolta, uchi toshli nayza, mis va toshli pichoq, yog'ochli kamon, terili shlemdan iborat.



Quruqlikdagi jangchilarning birdan bir turi sloxlar bo'lgan. Shu vaqtda ham qator taxlanish ishlatilindi. Qo'rg'onlarni qamal qilish vaqtida qamal narvonlari ishlatilindi. O'rta qirollik vaqtida qurollanish yaxshilangan: yangi kamonlar rivojlangan, uchishi 150 – 180 m ga

uzaygan
, otish
markazl
angan.
Qo'shin
uyushm
asi
o'zgarg
an,
alohida
qatorlar
tuzilgan
,
masalan



, kamon otuvchilar va nayza otuvchilar. Bo'linmalar endi 6, 40, 60, 100, 400, 600, askarlarga ega bo'lib qatorlar 2, 3 va 10 ming zobitlardan iborat. Askarlar asosan yoshlarni chaqiruv yo'li bilan yeg'ilgan.

Katta qurol bo'lib qo'rg'on xizmat qilgan. Yangi qirollikda armiya tubdan o'zgargan va doimiy bo'lgan. Asosiy qurollanish askarlarning – to'g'ri va qayrilgan qilichlardir. Qirol himoyachilari o'ziga yarasha shlem v dumaloq qalqon kiyishgan. Misrliklarning tagi to'g'ri to'rtburchak,



tepasi
dumaloq
, keng
uzun
qilich.
Qurol
davlatni
ki bo'lib,
tinch
vaqtida
sklatda
saqlan-
gan.

Fir'avn va uning amaldorlari

7. Ranglar, matolar, bosh kiyim, soch turmagi, kosmetika va taqinchoqlar:

Ranglar:

Misrliklar kostyumida oq rang juda obro'li va tabaqani yuqoriligini ko'rsatgan. Bug'doy rang teri, yaltiroq oq mato sariq qum fonida kostyumni juda ko'zga tashlantirgan. Oq rang misr zodagonlari deb hisoblangan va qadrlangan. Oddiy xalq o'z kostyumida oq bo'lmagan ranglarni: sariq hamda qaymoq ranglarni ishlatgan. Bu davrlarda qora rang – motam ramzini bildirmagan. Lekin shu davrlarda kiyimda yorqin: qizil, havo rang va yashil ranglarni ishlatishgan.

Matolar:

Oxirgi XVIII chi Firavn dinastiyasi (er.avv.XIVasr) boshchilik vaqtida misrliklar



mato
sida
erkak
lar va
ayol
lar

kostyumining matosi juda yupqa, ko'rinuvchan, qattiq, oq rangli bo'lgan, xamda afsonaviy visson (bu mato bibliyada Xudoga mosligi haqida aytilgan). Bu matoni plisirovka, gafri qilingan va kiygan odam tarixda birinchi marta ham bir vaqtning o'zida kiyimi yo'qdek, ham kiyingandek ko'rinardi. Asosiy matolar jun va zig'ir bo'lgan. Jahondagi eng qadimgi gazmol bu



– zig'irdir. Uning taxminiy yoshi 5.000 yil . Qadimgi Misrdagi Legendar Fivan xraminig devorlarida arxeologlar zig'ir ishlab chiqarish rasimlarini topganlar. Shuningdek qadimgi Misrda zig'ir gazmoli pul qiymatida ham ishlatilgan. Zig'ir misrliklarda tozalik va badavlatlikni bildirgan. Unga taniqli odamlarni ko'mishdan oldin mo'miyoga o'rashgan. Misr to'quvchilari paxta bilan zig'irni qayta ishlaganlar. Ularning hunarlari juda yuqori cho'qqilarga chiqqan:




zig'ir o'zining yupqaligidan hech qanday batist va tabiiy ipakka o'rin bermagan. Zig'irning yupqaligi shoyidan ham yupqa bo'lgan. Shunchalik yupqaligidan hattoki 5 qavat mato ustidan ham tana bilingan. Har xil tantana uchun kiyimlar teri va mixelardan tikilgan. Jundan rangli naqshli xilma-xil rasmlari bilan bog'ichlar to'qishgan. Qadimgi vaqtlarda tekis rang berilgan matolar bo'lardi. Asta sekinlik bilan rasimli matolarga talab ortdi. Ularni o'yib vishifka qilish yordamida tayorladilar, ko'pincha gabilen texnikasi rivojlandi.


Bosh kiyim:

Firavnlarning bosh kiyimi boshqalarnikidan judayam ajralib turgan. Oddiy xalq boshiga yo'l - yo'lli teri yoki qalin paxtali matolardan yopishib turgan kiyimbosh kiyganlar. Soch turmagi va bosh kiyimida odamlarning qaysi tabaqaga mansubligini darrov bilib olish mumkin bo'lgan. Qadimgi misrliklar boshi va baq baqalarini yaxshilab qirib tozalaganlar. Zodagon erkak va ayollar azali har – xil rangli, bezatilgan pariklarni kalta olingan yoki tashlangan boshlariga kiyishga. Pariklarning uzunligi quloqning yumshoq joyigacha bo'lgan, ularning shakli vaqtga qarab o'zgargan.

Erkaklar issiqdan saqlanish uchun qo'y yunidan yoki o'simlik tolalaridan pariklar tayorlab kiyishgan, boy xalqi baravariga ikkita parik kiyishgan. Tabaqaning yuqoriligi parikning qalinligi, uzunligi va materialiga qarab baholangan. Erkaklar soch o'rami shaklida sun'iy soqol taqishgan. Soqolning uchlari qayrilgan yoki uncha katta bo'lmagan kub shaklida bo'lgan. Boy odamlarning va ularning oila a'zolari pariklari kambag'allarnikiga nisbatan uzun va qalin bo'lgan. Sudyalar bosh kiyimida simbolik ma'no




“haqiqat”pati taqilgan. Nil vohasida 2 ta davlat bo'lgan: Yuqori Misr firavini – oq rangli toj, Quyi Misrda esa – qizil toj bo'lib tepasi ochiq kengaygan silindr shaklida bo'lgan.



Soch turmagi:

Boy ayollarning soch turmaklari juda ajoyib, katta va har xil ramziy taqinchoqlar bilan bezatilgan. Sochlari juda ko'p o'rilib, boshning orqa qismiga mahkam langan, pastlari esa erkin yoyilib turgan. Shoxona udumlardan biri bu bitta o'rimni chakkaga tushirib olishdir. O'rimning asosi qalin bo'lib, sekinlik bilan toraygan va spiral aylanaga o'tgan. Uning uzunligi yelkagacha bo'lgan. Sochning to'g'ri, tekis qilib kesilgani, cho'lkasining qalinligi va boshning chetidagi o'rimi bu shox tabaqasidan kelib chiqqanligini bildiradi. Ustidan ko'bra rasmi bilan tilladan gardish kiyilgan, ilonning boshi esa shundoq malikaning peshonasiga to'g'ri kelgan. Yuqori tabaqaga tegishli qizlarning soch o'rimi bitta, ikkita yoki bir nechta bo'lib masalan malikanikiga qaraganda ingichkaroq bo'lgan. Shuning uchun soch o'rimlarining qalinligiga qarab



tabaqa yuqori hisoblangan. Qullarni soch o'rimining ko'pligiga qarab ajratib olish mumkin bo'lgan. Ayollar turmakning uzunligi va murakkabligini kayfiyati va holatiga qarab tanlashgan.

Zodagonlar sochlarni xilma – xil ranglarga bo'yab mayda jingalak qilishgan yoki sochlarni o'rib kalta qilib olishgan. Zodagonlarning farzandlari rangli (ko'pincha ko'k) bir chakkadan tushgan soch o'rami yoshlik lo'kini deb nomlangan.

KOSMETIKA:

Misr – kosmetikaning vatanidir. Bu davlatda 4000 yildan beri tanilgan. Erkak va ayollar ko'z, qosh uchun padvodkadan foydalanishgan. Ko'zlarini barg rang yoki kul rang bilan bo'yaganlar. Misrlilar lablarini pamada bilan ham bo'yaganlar. Misrda grim san'ati bilan erkaklar shug'ullanishgan. Qadimgi maqbaralarda yog', maz idishlarida saqlangan.

Jretsi – xram xizmatkorlari bo'lib, kosmetik vositalar ishlab chiqarish bilan shug'ullangan va faqat ular bu san'at sirlarini bilganlar.




TAQINCHOQLAR:

Ayollar oyoqlariga ham, qo'llariga ham braslet taqqanlar. Barmoqlarigauzuklar, quloqlariga esa dumaloq ziraklar taqishgan.



Hunarmandlarning hunarlari o'sib brogan: Qadimgi shoxlik davrida katta – katta bisirlarning ustini rangli pastalar bilan bo'yash o'ylab topilgan va bu biserlardan quyosh bo'yinbogi, bilak uzuklar, kalazirisni yasatish uchun setkalar yasalgan. Ularning ming yillik zargarlik buyumlari bizning hozirgi kunimizgacha o'zining yorqinligi hamda rangini



yo'qot masdan yetib kelgan. Bezaklarning hammasi tirik gullardan boshlanib, zargarlik buyum larida tugaydi. Bu buyumlar faqat chiroy uchun emas balki sexr jodu bilan muloqatda bo'ladiganlar bilan gaplashish maqsadida taqilgan. Pektoral osilmachoqlari mistik ma'nosi va bezagi uchun yuqoridir. Bu plas tik iltijo tilladan bo'lib, xudoga qaratilgan. Masalan tilla pektorallar firavn Tutanxamo'n ning go'ridan topilgan. Misrliklarning juda ko'p bezaklari- barg va

samo rangli dumaloq, cho'zinchoq marjon shaklida bo'lgan. Oyoq va qo'llar uchun taqinchoqlar, zebigardonlar erkak va ayollar uchun bir xil bo'lgan. Ayollar uchungina belga taqinchoqlar, ularni yosh qizlar yupqa ko'ylak tagidan taqishgan (ularni o'g'il bolalar 9 yoshgacha taqishgan). Qadimgi Misrliklar buyum materialining narxi emas, uning zargar san'ati baxolanadi. Shuning uchun ham qirol bezaklarida qimmatbaxo toshlar oyna biser bilan birga turadi, tilla esa bu buyumlarning tag



qismida xizmat qiladi. Bu buyumlarni tayorlovchi ustalar emal bilan devor yasash texnologiyasini juda yaxshi o'zlashtirganlar. Asosi tilladan bo'lgan tekislik ustiga tilladan rasmning devorchalari chiziladi va ularning orasida shu devorchalarga moslab fayansdan bo'lakchalar yotqiziladi. Shu narsalarning o'zigina buyumni yoqimli qilib turadi, tilladn yasalgan asos esa ko'zga ko'rinmay badanga yopishib turadi va davolovchi xususiyatga egadir.



